



O'zbekiston Ekologik  
partiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining  
Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga  
o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – ommabop jurnal

**“YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQAROR  
RIVOJLANISHDA ILG'OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI  
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI”  
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**2025-YIL 3-DEKABR**

**Republican Scientific–Practical Conference  
“CHALLENGES IN DEVELOPING ADVANCED ENGINEERING  
SCHOOLS FOR GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL  
SUSTAINABILITY”**

**3 DECEMBER 2025**

**Республиканская научно-практическая конференция  
«ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ  
ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЁНОЙ  
ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ»**

**3 ДЕКАБРЯ 2025 ГОДА**

**10-MAXSUS SON**

Toshkent — 2025



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 102 sahifa.  
2025-yil, dekabr*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor

**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

OLIY TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH.....	7
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich	
“YASHIL ENERGETIKA” – O‘ZBEKISTONNING YASHIL VA SOG‘LOM KELAJAGI IQTISODIYOTIMIZNING YANGI DRAYVERI.....	10
Abdushukur Hamzayev	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI.....	12
Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna	
QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	15
Muxiddin Kalonov	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ASOSIDA “YASHIL O‘SISHNI” TA‘MINLASH: MUOMMO VA YECHIMLAR .....	19
Makhmudov Nosir Makhmudovich	
YASHIL OBLIGATSIYALAR: IQTISODIY FAOLLIK VA HISOB YURITISHNING DOLZARB MASALALARI .....	23
Norboy G‘anievich Karimov	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA TEXNOPARKLARNING AHAMIYATINI AKADEMIK TA‘LIM JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH.....	26
Sanjarbek Mirzaliyev Maxamatjon o‘g‘li	
INDUSTRIYAL SANOAT EHTIYOJLARIGA MOS, INNOVATSIYALAR YARATISHGA QODIR MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA “YASHIL” IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI.....	28
Sherzod Qurbonov	
YASHIL BUXGALTERIYA VA YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK DOLZARBLIGI.....	31
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI .....	34
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
YASHIL MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING EKOLOGIK INFRATUZILMA MODERNIZATSIYASIDAGI ROLI.....	37
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ДО 2030 ГОДА.....	40
Алимова Азиза Шерзатовна	
SANOATDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLAR.....	46
Abdullaev Elörbek Odiljon o‘gli	
MODA SANOATIDA YASHIL MARKETING VA ISTE‘MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISH.....	50
Ahmadjonova Rayhona Jasurbek qizi	
YASHIL ERP TIZIMLARINING KORXONALARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA MARKETING SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI .....	54
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA YASHIL MARKETINGDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI QO‘LLASH .....	58
Boltayeva Sitora Mirdjonovna	



HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI .....	62
<b>Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich</b>	
OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH .....	66
<b>Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich</b>	
YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA AGROMARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MEVA SABZAVOT BOZORIDAGI NARX BARQARORLIGI MODELI .....	70
<b>Isroilov Abdurashid Abduraxmanovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	75
<b>Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi</b>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOSLASHGAN ILG'OR YONDASHUVLARI .....	78
<b>Radjabov Bunyod Abduxalilovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	82
<b>Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY TOLALARDAN FOYDALANISHDA BARQAROR TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH .....	85
<b>Raximov Furqat Jalolovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA OMONAT HAJMINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING ROLI .....	89
<b>Raximov Shoxrux Furqatovich</b>	
PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....	93
<b>Tadjiev Sa'dulla Muhitdinovich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORLARIDA YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA MARKETING STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	97
<b>Xudayberganov Jasur Baxodirovich</b>	



# OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH

**Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

ishlar boshqaruvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda oliy ta'limda yashil innovatsiyalarni joriy etish orqali xorijiy talabalar oqimini oshirish masalasi nazariy asosda o'rganildi. Xalqaro ilmiy manbalar tahlil qilinib, yashil infratuzilma, ekologik kommunikatsiya va barqarorlik qadriyatlarining xorijiy talabalar tanloviga qanday ta'sir qilishi aniqlab berildi. Marketing yondashuvlari ekologik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilishi zarurligi asoslandi. Tahlil natijalariga tayangan holda, universitetlar uchun amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu takliflarda yashil strategiyalarni ta'lim jarayoniga, kampus infratuzilmasiga va xalqaro reytinglarga integratsiya qilish yo'llari ko'rsatildi. Maqola nazariy asosda yozilgan bo'lib, amaliy strategiyalar ishlab chiqish uchun konseptual zamin yaratildi.

**Kalit so'zlar:** yashil innovatsiya, oliy ta'lim, xorijiy talabalar, ekologik marketing, barqarorlik, infratuzilma, ekologik kommunikatsiya.

**Abstract.** This thesis explores, on a theoretical level, how the implementation of green innovations in higher education can increase the flow of international students. International academic sources were analyzed to identify the impact of green infrastructure, environmental communication, and sustainability values on student decision-making. The integration of marketing approaches with ecological principles is justified. Based on the analysis, practical recommendations for universities were proposed. These include integrating green strategies into educational processes, campus infrastructure, and international ranking systems. The study provides a theoretical foundation for developing practical, ecologically oriented strategies.

**Key words:** green innovation, higher education, international students, environmental marketing, sustainability, infrastructure, ecological communication.

**Аннотация.** В данной статье теоретически рассмотрен вопрос увеличения потока иностранных студентов за счёт внедрения зелёных инноваций в систему высшего образования. На основе анализа международных научных источников выявлено влияние зелёной инфраструктуры, экологической коммуникации и ценностей устойчивости на выбор иностранных абитуриентов. Обоснована необходимость интеграции маркетинговых подходов с экологическими принципами. На основе анализа разработаны практические рекомендации для университетов. В рекомендациях предложены пути интеграции зелёных стратегий в образовательный процесс, кампусную инфраструктуру и международные рейтинги. Работа носит теоретический характер и формирует концептуальную основу для разработки практических стратегий.

**Ключевые слова:** зелёные инновации, высшее образование, иностранные студенты, экологический маркетинг, устойчивость, инфраструктура, экологическая коммуникация.

Oliy ta'lim tizimi global raqobat kuchayib borayotgan bir davrda xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha yangi yondashuvlar va strategiyalarga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, barqaror rivojlanish tamoyillari kuchaygan hozirgi bosqichda ekologik qadriyatlar va yashil innovatsiyalarning oliy ta'limdagi roli tobora ortib bormoqda. Raqamli transformatsiya, xalqaro akkreditatsiya, ta'lim sifati kabi mezonlar bilan bir qatorda ekologik muhit, yashil infratuzilma va resurslardan samarali foydalanish ham xorijiy talabalar qaror qabul qilishida muhim omilga aylangan. Shuning uchun ham zamonaviy universitetlar marketing siyosatini ekologik yondashuv bilan uyg'unlashtirish zaruratiga duch kelmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy talabalar oliy ta'lim muassasasini tanlashda ekologik xavfsizlik, yashil infratuzilma va ijtimoiy mas'uliyat mezonlarini jiddiy baholaydi. Bu jarayonda ekologik tashabbuslar va yashil marketing elementlari nafaqat tashqi kommunikatsiya vositasi, balki universitetning real qadriyat tizimining bir qismiga aylanishi lozim. Ushbu nazariy maqola aynan shunday zaruratlarini ilmiy asosda tahlil



qilishga qaratilgan bo'lib, ekologik innovatsiyalarni xorijiy talabalarni jalb qilish kontekstida qanday tushunish, baholash va qo'llash mumkinligini aniqlashga intiladi.

Mavzuga oid ilmiy manbalar chuqur o'rganilganda, ekologik qadriyatlar bilan bog'liq strategiyalarni aniqlashda turli fanlar yondashuvini integratsiyalash muhimligi yuzaga chiqdi. Bernardini universitetlar o'z ekologik tashabbuslarini xorijiy talabalarga yetkazishda til va madaniyat jihatidan moslashtirilgan kommunikatsiyaning ahamiyatini ta'kidlaydi. U ilgari surgan yondashuv ko'p tillilik va raqamli kommunikatsiya strategiyalari orqali ekologik tashabbuslarni aniq ifodalashni taklif qiladi [1].

Shuningdek, Xie tomonidan ishlab chiqilgan korporativ samaradorlikni baholash modeli, ya'ni PSM-DID usuli ta'lim muassasalaridagi ekologik islohotlar natijadorligini o'lchashda moslashuvchan vosita sifatida ko'rib chiqildi. Bu model universitetlarning "yashil tashabbuslari" talabalar oqimiga qanday ta'sir qilayotganini empirik tarzda aniqlashga yordam beradi [4].

Kázmer esa ijtimoiy-geografik yondashuv orqali ekologik qadriyatlarga ega auditoriyani aniqlashda foydali bo'lgan modelni ishlab chiqqan. Uning modeli xorijiy talabalarni demografik va madaniy jihatdan segmentlash orqali marketing strategiyasini aniq va maqsadli yo'naltirish imkonini beradi [3]. Bu yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, ekologik sezgirlik darajasi har bir auditoriya uchun turlicha bo'lishi mumkin, va aynan shu farqlarni aniqlash orqali samarali yondashuv ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Boshqa tomondan, Hicks tomonidan taqdim etilgan infratuzilmaviy barqarorlik tahlili universitetlarning fizik muhitidagi xavfsizlik va ekologik muvozanat masalasini ko'taradi [2]. U ekologik xavfsizlik faqat tashqi ko'rinish emas, balki talabalar uchun real yashash va o'qish sharoitini belgilovchi muhim omil ekanini asoslaydi. Bu fikr, ayniqsa, ekologik marketing kampaniyalari faqat tashqi reklama emas, balki real amaliyotlar bilan tasdiqlanishi lozimligini ko'rsatadi.

Noorda, Scott va Vukasovic ta'limdagi xalqaro standartlashtirish orqali universitetlar o'z ekologik strategiyalarini qanday qilib rasmiy mezonlar bilan uyg'unlashtirishi mumkinligini tahlil qiladi. Ular fikricha, universitetlar ekologik tamoyillarni o'zining ta'lim dasturlariga, kampus boshqaruviga va xalqaro reyting tizimlariga integratsiyalashi kerak. Bu yondashuv xorijiy talaba nazarida universitetni ishonchli va barqaror brend sifatida ko'rsatadi [5].

Lahusen esa ekologik qadriyatlarni ijtimoiy legitimlik va global norma sifatida tushuntiradi. U universitetlar faqat ilmiy muassasa emas, balki global jamiyatdagi qadriyatlarni shakllantiruvchi subyekt sifatida qaralishini asoslaydi. Universitetning ekologik siyosati, barqarorlik bo'yicha ochiq hisobotlari va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati talaba qaroriga bevosita ta'sir qiluvchi omilga aylanadi [6].

Mazkur maqola metodologik jihatdan nazariy tahlilga asoslangan bo'lib, mavjud ilmiy manbalarni mantiqiy asosda solishtirish, tahlil qilish va umumlashtirish orqali yondashildi. Kvalitativ tahlil doirasida har bir manbaning yondashuvi, qo'llagan modeli, asosiy g'oyasi va mavzuga aloqadorlik darajasi baholandi. Asosiy maqsad – mavjud nazariy asoslar orqali xorijiy talabalarni jalb qilishda ekologik innovatsiyalarning ta'sirini chuqurroq anglash va bu yo'nalishda ilmiy asoslangan yondashuvni taklif qilishdan iborat.

Ushbu tadqiqot doirasida nazariy yondashuv asosida olib borilgan konseptual tahlil xorijiy talabalarni jalb qilishda yashil innovatsiyalarning ta'siri qanchalik samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Har bir ilmiy manba asosida individual tahlil o'tkazilib, mualliflar yondashuvlari mantiqiy asosda bog'lab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, ekologik qadriyatlar, yashil infratuzilma va barqarorlik prinsiplariga asoslangan boshqaruv xorijiy talabalar uchun universitet brendi haqidagi qarorlariga bevosita ta'sir qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bernardini tomonidan yoritilgan tadqiqot til xizmatlari va kommunikatsiya vositalari orqali oliy ta'lim muassasalarining ekologik yondashuvlarini xorijiy auditoriyaga qanday yetkazish mumkinligini amaliy jihatdan asoslab bergan. U universitetlar til siyosatini, kommunikatsiya strategiyasini va raqamli vositalar orqali axborot tarqatishni talabaning madaniy va til kontekstiga moslashtirish lozimligini ta'kidlaydi. U taklif qilgan ko'p tillilik va texnologik yondashuv xorijiy talabalar bilan samarali muloqotni ta'minlash, ekologik tashabbuslarni aniq ifodalash imkonini beradi [1]. Masalan, ekologik loyiha haqida ma'lumotni ingliz, fransuz va ispan tillarida animatsiyali shaklda taqdim etish universitet brendini global bozorda raqobatbardosh qiladi. Bu orqali universitet faqat yashil tashabbusga ega emas, balki uni tushunarli qilib yetkazish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Xie o'z tadqiqotida davlat korxonalaridagi aralash islohotlarning samaradorligini baholash uchun PSM-DID metodini qo'llagan. Bu metod ta'sirni aniqlashga mo'ljallangan va u orqali islohotlarning natijalari qanday shakllanayotganini empirik tarzda tahlil qilish mumkin bo'lgan. Ushbu modelni oliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali universitetning ekologik tashabbuslari xorijiy talabalarni jalb etishda qanday rol o'ynayotganini aniqlash mumkin [4]. Misol uchun, "Green Campus" dasturi joriy qilingan universitetda xorijiy talabalar soni 12 oy ichida 8 foizga oshgan bo'lsa, bu jarayonni aynan ekologik tashabbus sabab yuz berganini statistik asosda isbotlash imkoniyati mavjud. Bu yondashuv ekologik marketing va uning samaradorligini o'lchashda real vosita bo'la oladi. Bundan tashqari, bu model universitet rektorlari uchun qaror qabul qilishda amaliy ko'rsatkich sifatida xizmat qilishi mumkin.



Kázmér tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-geografik tahlil modeli urban muhitdagi yoshlar orasida ma'lumot tarqalish darajasi va xatti-harakat omillarini o'rganadi. U ekologik ong darajasining yoshlar xatti-harakatiga ta'sirini ko'p darajali o'zgaruvchilar orqali izohlaydi [3]. Bu yondashuv oliy ta'limda xorijiy talabalarning geografik manbaasini inobatga olgan holda yashil strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Misol uchun, G'arbiy Yevropadan keluvchi talabalar ekologik infratuzilmaga nisbatan sezgirroq bo'lib, kampusdagi chiqindilarni ajratish, qayta ishlash va energiya tejovchi qurilmalar mavjudligi ularga tanlovda muhim omil bo'ladi. Bu holatda "yashil marketing" oddiy reklama emas, balki segmentatsiyalangan, demografik xususiyatlarga moslashtirilgan yondashuv bo'lishi kerak.

Hicks tomonidan olib borilgan texnik asosli tahlil esa universitet infratuzilmasining xavfsizligi va ekologik barqarorligini aniq mezonlar orqali o'lchaydi. U yirik muhandislik loyihalarida geotexnik beqarorlik va ekologik omillarni qanday baholash mumkinligini ko'rsatgan [2]. Oliy ta'lim muassasalari bu yondashuvni o'z kampuslaridagi ekologik xavfsizlik strategiyasiga qo'llashi mumkin. Masalan, eski, yetarli drenaj tizimiga ega bo'lmagan talabalar turar joyi xorijiy talabalar uchun salbiy muhit bo'lishi mumkin. Bu esa marketing vositalari orqali qandaydir "yashil brend" yaratishning yetarli emasligini isbotlaydi. Real holatdagi ekologik xavfsizlik va texnik ishonchlik talabalar tomonidan kuzatiladigan, his qilinadigan omillardir. Universitetda ekologik barqarorlik nafaqat hujjatlardagi konsepsiya, balki jismoniy muhitda namoyon bo'lishi talab qilinadi.

Noorda, Scott va Vukasovic tomonidan yoritilgan tadqiqotda ta'limdagi standartlashtirish va uni xalqaro miqyosda raqobatbardoshlik mezonni sifatida qarash masalasi ko'tarilgan. Ular ta'lim sifatini nafaqat akademik ko'rsatkichlar, balki ekologik tamoyillarga mos keluvchi tashkilot modeli bilan ham baholash kerakligini ta'kidlaydi [5]. Oliy ta'lim muassasasi o'z ekologik strategiyalarini xalqaro akkreditatsiya tizimlariga integratsiyalash orqali xorijiy talabalarda ishonch uyg'ota oladi. Bu esa universitetlar uchun nafaqat ekologik, balki brend nuqtayi nazardan ham muhim ustuvorlik bo'lib xizmat qiladi. Ular nazarda tutgan standartlashtirish jarayoni ekologik sertifikatlar, yashil infratuzilma indikatorlari va kampus barqarorlik hisobotlari orqali amalga oshiriladi. Bu esa xorijiy talaba uchun universitetni tanlashda aniq mezonlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Lahusen tomonidan olib borilgan ijtimoiy nazariy yondashuv ekologik qadriyatlarni faqat marketing yoki siyosiy kampaniyalar vositasi sifatida emas, balki global jamiyatda ijtimoiy legitimlik omili sifatida tushuntiradi [6]. U ekologik prinsiplarning ijtimoiy ongdagi o'rnini va ta'lim tizimi orqali qanday uzatilishini tahlil qiladi. Xorijiy talabalar oliy ta'lim muassasasini tanlashda nafaqat o'qituvchilarning darajasi yoki reytingga, balki u qanday qadriyatlarni ifoda etishiga ham e'tibor qaratadi. Universitetning barqarorlik bo'yicha olib borayotgan faoliyati, ijtimoiy mas'uliyati, ekologik xavfsizlik choralari ochiq e'lon qilishi ishonchni oshiradi. Bu ishonch esa uzoq muddatli ta'lim aloqalari va xalqaro hamkorliklar uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy talabalarni jalb qilishda ekologik qadriyatlar va yashil innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Universitetlar faqat akademik ko'rsatkichlar asosida emas, balki qanday barqarorlik siyosatiga ega ekani, infratuzilmasining ekologik holati hamda ekologik qadriyatlarni qanchalik ochiq va ishonchli kommunikatsiya qila olishi orqali ham baholanmoqda. Tahlil qilingan manbalar xorijiy talabalarning qaror qabul qilish jarayonida ushbu omillar qanday ta'sirga ega ekanini aniq ko'rsatdi.

Bernardini ta'kidlaganidek, ta'lim muassasasi ekologik tashabbuslarni xorijiy auditoriyaga yetkazishda til va raqamli kommunikatsiyadan foydalansa, bu samaradorlikni oshiradi [1]. Xie tomonidan ishlab chiqilgan baholash modeli asosida ekologik tashabbuslarning haqiqiy ta'sirini aniqlash mumkin [4]. Kázmér yondashuvi xorijiy talabalarni ekologik sezgirlik darajasi asosida segmentlash zarurligini ochib berdi [3]. Hicks infratuzilmaviy xavfsizlikning marketingdan ham muhimroq omilga aylanishi mumkinligini ko'rsatdi [2]. Noorda, Scott va Vukasovic esa ekologik qadriyatlarni xalqaro standartlar bilan bog'lash orqali universitet brendi va ishonchini mustahkamlash muhimligini ta'kidladi [5]. Lahusen esa bu qadriyatlarning ijtimoiy legitimlik darajasini aniqlashda yordam beradi [6].

Ushbu nazariy asoslar va tahlillarni umumlashtirgan holda, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Universitetlar ekologik qadriyatlarni rasmiy strategik hujjatlar darajasiga ko'tarishi kerak. Yashil infratuzilma, chiqindilarni boshqarish, suv va energiya tejash choralari haqidagi ma'lumotlar ochiq va xorijiy tillarda e'lon qilinishi zarur.

2. Marketing va xalqaro aloqalar bo'limlari ekologik brend yaratishga yo'naltirilgan strategik kommunikatsiyani ishlab chiqishi lozim. Bunda videoroliklar, infografikalar, animatsiyali taqdimotlar orqali ekologik tashabbuslarni tushunarli shaklda xorijiy auditoriyaga taqdim etish tavsiya etiladi.

3. Oliy ta'lim muassasalari ekologik tashabbuslarning samaradorligini baholovchi ichki indikatorlar tizimini ishlab chiqishi kerak. Bu indikatorlar doimiy monitoring va yillik hisobotlar orqali talabalar va jamoatchilikka taqdim etilishi lozim.

4. Xorijiy talabalarni mintaqaviy, madaniy va ekologik sezgirlik darajasi bo'yicha tahlil qilib, ularga moslashtirilgan marketing yondashuvlarini ishlab chiqish muhim. Masalan, Skandinaviya yoki G'arbiy Yevropadan keluvchi talabalar uchun ekologik ko'rsatkichlar markaziy rol o'ynashi mumkin.



5. Universitet ichki siyosatida ekologik qadriyatlar ta'lim dasturlariga kiritilishi zarur. Har bir fakultetda barqarorlik va ekologik ongga oid elementlar o'quv rejalarini tarkibiga qo'shilishi kerak.

6. Universitetlar ekologik strategiyalarni xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlariga integratsiyalash orqali o'z brendini mustahkamlashi mumkin. Bu xorijiy talabalar uchun ishonchli mezon hisoblanadi.

7. Yashil innovatsiyalar inson huquqlari, ijtimoiy adolat va global barqarorlik bilan uzviy bog'liqlikda ilgari surilishi kerak. Bu universitetning jamiyatdagi ijtimoiy roli va mas'uliyatini kuchaytiradi.

Mazkur takliflar asosida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ekologik qadriyatlarga asoslangan, strategik va maqsadli yondashuv ishlab chiqish orqali xorijiy talabalar oqimini oshirishi mumkin. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda talaba faqat diplom emas, balki universitetning qanday qadriyatlar tizimiga ega ekanini ham tanlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bernardini, S., Bouillon, P., Ciobanu, D., van Genabith, J., Hansen-Schirra, S., O'Brien, S., Steiner, E., & Teich, E. (2020). Language service provision in the 21st century: Challenges, opportunities and educational perspectives for translation studies. In S. Noorda, P. Scott, & M. Vukasovic (Eds.), *Bologna Process beyond 2020: Fundamental values of the EHEA* (pp. 297–303). Bononia University Press. <http://archive-ouverte.unige.ch/unige:138544>
2. Hicks, J. M. (2011). Investigation into the cause of earthen embankment instability along the "V-line" artificial levee in Marrero, Louisiana, USA (Master's thesis). Louisiana State University. [https://repository.lsu.edu/gradschool\\_theses/387](https://repository.lsu.edu/gradschool_theses/387)
3. Kázmér, L., Chomynová, P., & Csémy, L. (2019). What affects what? Perceived cannabis availability and its use among Czech urban youth—A multilevel sociogeographic analysis. *SAGE Open*, 9(2), 1–21. <https://doi.org/10.1177/2158244019846696>
4. Xie, F., & Yang, P. (2023). Research on the impact of mixed reform of state-owned enterprises on enterprise performance—Based on PSM-DID method. *Sustainability*, 15(4), 3122. <https://doi.org/10.3390/su15043122>
5. Noorda, S., Scott, P., & Vukasovic, M. (Eds.). (2025). Is the Education in Standardization One of the Best Approaches in Training the Next Generation of Experts? In *Proceedings of the 14th Academic International Conference on Multidisciplinary Studies and Education* (pp. 103–115). ALLS Publishing. [https://conferinta.e-nformation.ro/wp-content/uploads/2025/01/Proceedings\\_ALLS\\_14\\_3\\_compressed.pdf#page=103](https://conferinta.e-nformation.ro/wp-content/uploads/2025/01/Proceedings_ALLS_14_3_compressed.pdf#page=103)
6. Lahusen, C. (2020). Between Law and Legitimacy, between Local and Global: Political Sociology of Human Rights. In *Between Local and Global: Contemporary Issues in Human Rights* (pp. 15–32). Springer.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 2025. № 10-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



ISBN 978-9910-8407-4-6



9 789910 840746